

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOIY IDROK MEXANIZMLARINING SHAKLLANISHI

*O'rolova Sojida Xayitboy qizi*

*Namangan Davlat Universiteti 2-kurs*

*Psixologiya (Faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi magistranti*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy idrok mexanizmlarining shakllanishi, Shu bilan birga Ijtimoiy Idrokning psixologik manbalarda va chet el adabiyotlarida o'rganilganligi, ijtimoiy-pedagogik persepsiya tuzilishi mehanizmlari haqida so'z borgan..

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi, idrok, ijtimoiy idrok, mexanizm, fenomen, adaptatsiya, kasbiy- pedagogik bilim, kreativ fikrlash, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar.

**Abstract:** This article talks about the formation of mechanisms of social perception in future teachers, at the same time, the study of social perception in psychological sources and foreign literature, the mechanisms of the structure of social pedagogical perception.

**Key words:** Teacher, perception, social perception, mechanism, phenomenon, adaptation, professional-pedagogical knowledge, creative thinking, innovative technologies, interactive methods.

**Аннотация:** В данной статье говорится о формировании механизмов социального восприятия у будущих учителей, в то же время об изучении социального восприятия в психологических источниках и зарубежной литературе, механизмах структуры социально-педагогического восприятия.

**Ключевые слова:** Учитель, восприятие, социальное восприятие, механизм, феномен, адаптация, профессионально-педагогические знания, креативное мышление, инновационные технологии, интерактивные методы.

### KIRISH

Respublikamizda barkamol shaxs va malakali mutaxassis tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlashga qaratilgan uzlusiz ta'lim tizimi tarkib toptirildi. Mustaqil xuquqiy demokratik davlat qurish jarayoni nazariyotchilar, amaliyotchilar va ta'lim tizimi rahbarlari oldiga kasbiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan moslashuvchan kadrlarni tayyorlash masalasini qo'ydi . Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 12 iyuldaggi 577-sonli "O'quvchilarni psixologik –pedagogik qo'llab quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi " qarorning qabul qilinishi o'quvchilarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllanishiga katta axamiyat qaratilmoqda. Inson psixologiyasini bilish asosida shaxsni shakllantirishga, uning

ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish mamlakatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi

Bu ulkan vazifani yechish inson omili bilan bog'liq bo'lib, bunda psixologiya fanlarining alohida o'rni, salohiyati hamda ma'suliyati yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa respublika mustaqillikka erishgandan so'ng psixologiya fanlariga e'tiborning kuchayishi bu boradagi ishlarni rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Bu borada amalga oshirilayotgan ulkan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ko'p jihatdan yuqori malakali, o'z faoliyatida innovatsion texnologiyalarni dadillik bilan joriy eta oladigan, kasbiy mustaqillikka va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Biroq ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga qo'yilayotgan talablar, shuningdek, yangicha fikrlaydigan, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan moslashuvchan mutaxassisni shakllantirish zarurati bilan unga mos shart-sharoitlarning ishlab chiqilmaganligi o'rtasida ob'ektiv ziddiyat mavjud.<sup>1</sup>

Bugungi kunda pedagogning o'z kasbidan qoniqishi muammosi faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va metodistlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Biroq shuni ta'kidlash joizki, hozirgacha bu murakkab ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalovchi, uning ta'limni takomillashtirish sharoitidagi aniq xususiyatlarini mujassamlashtirilgan kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatga moslashish kontseptsiyasi ishlab chiqilgan emas. Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirishga ehtiyoj mavjud bo'lib, uning ob'ektiv muammolari ham ko'zga tashlanmoqda. Bu muammolarni aniqlash va hal etish yo'llarini topishning zaruriy dasturlarini amalga oshirish lozim. Kasbiy-pedagogik bilim hamda dunyoqarashlarini yanada yuqoriroq darajaga ko'tarish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni va darsdan tashqari ishlarda kasbga yo'naltirishning maqsad va vazifalari, mazmuni, shakl hamda metodlari haqida ma'lumotlarni keltirish, mashg'ulotlarda kasbga qiziqtirish va yo'naltirish ishlarini to'laqonli olib borish masalalari ushbu tadqiqotni tayyorlashda ehtiyoj keltirib chiqardi.

O'qituvchining o'quvchilar tomonidan idrok etish jarayoni, o'quvchining o'quv-tarbiya jarayonida tutgan o'rni va qiyofasi hamda pedagogik qobiliyatlarning shakllanishi ancha yaxshi o'rganilgan va bu kabi tadqiqotchilarning asarlarida uchraydi. : Ananiev A.A., Bodalev A.A., Kondratieva C.V., Miniyorov V.M., Rean A.A., Kolominskiy Ya.L., Sitnikov L.V. va boshqalar. O'qituvchi bolalarning xulq-atvor standartlarini shakllantirishga ta'sir qiladi, ular boshqalar bilan aloqada tanlagan muloqot usulini belgilaydi, ularning shaxsiyatini rivojlantirishga, xarakterini shakllantirishga va ta'lim faoliyati sub'ekti sifatida shakllanishiga ta'sir qiladi. Biroq, zamonaviy o'quvchilar tomonidan o'qituvchini idrok etish va tushunish muammosi hali ham yaxshi tushunilmagan.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining . "O'qituvchilarni psixologik- pedagogik qo'llab quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi 12.07.2019-yildagi 577-sonli qarori.

Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok etadi. Idrok sezgiga nisbatan bir mucha murakkabroq, to'laroq aks ettirish jarayoni bo'lib, sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya'ni yaxlit aks ettirishdan iboratdir. Masalan, olmani ko'rgan paytimizda uning shakli, rangi, ta'mi, hidni va navi bilan birgalikda bir butun narsa tarzida idrok etamiz. Demak, idrok qilish jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz qatnashadi. Psixologik abdiyotlarda idrok tushunchasiga turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan M.Vohidovning "Psixologiya" darsligida idrok deb sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishga aytildi, deb keltiriladi. V.Karimovaning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida idrok bu bilishimizning shunday shakli, u borliqdagi ko'plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan ob'ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta'minlaydi. Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda idrokka quyidigicha ta'rif berish mumkin: Idrok-deb sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytildi. Kishi narsa-hodisalarning ayrim xossalarni sezadi. Uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki narsa va xossa bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarni sezadi. Masalan: chaqmoq qandni idrok qilinadi, uning shirinligi seziladi. quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligi seziladi va boshqalar. Idrok qo'zg'atuvchilarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsani butunligicha, yaxlitligicha, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiriladi. Shuning uchun idrok ayrim sezgilarning oddiy yig'indisidan iboratdir, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Idrok o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan hissiy bilishning sifat jihatidan yangi yuksakroq bosqichidir. Idrokning muhim tomonlaridan biri - uning xususiyatlarini turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri - bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (perseptiv) faoliyatini uning o'zlashtirilgan bilimlari, to'plagan tajribalari shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zamirida yuzaga keladi. Idrokning yana bir muhim xususiyati, uning narsa va hodisalarni umumlashgan holda aks ettirilishdir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko'p qirrali, ko'p yoqlama amallari idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o'sha majmua aniq qism yoki hodisa sifatida baholanadi. Idrokning navbatdagi xususiyati uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. Odam o'z turmush tajribasida juda ko'p narsa va hodisalarni takrortakror idrok qilgani tufayli odamning idroki anglanilgan xarakatlarga egadir. Shuning uchun yetarli turmush tajribasiga ega bo'lgan odam (ya'ni katta yoshli odamlar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanligini anglashga yordam beradi. hech

qanday turmush tajribasiga ega bo'limgan odam, (ya'ni chaqaloq, bolalar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanini hali mutlaqo bilmaydi. Idrok jarayoni shunchaki oddiy aks ettirishdan iborat emas. Idrok jarayonida odamning diqqati, xotirasi, tafakkuri, xayoli, hissiyoti va irodasi ishtirok etadi.<sup>2</sup>

Psixologiyada bizning idrokimizning xilma-xilligi - ijtimoiy idrok tushunchasi keng qo'llaniladi. Ijtimoiy idrok - bu shaxsning o'zini, boshqa odamlarni, boshqa ijtimoiy ob'ektlarni tushunishi va baholashi. Bu atama 1947 yilda psixolog D. Bruner tomonidan kiritilgan. Ushbu kontseptsianing psixologiyaga kiritilishi olimlarga inson idrokining muammolari va vazifalariga boshqacha qarash imkonini berdi. Inson ijtimoiy mavjudot bo'lib, juda ko'p turli xil munosabatlarning sub'ektidir. Shaxsning boshqa odamlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati aloqa sheriklarining idroki va baholashiga bog'liq. Idrok o'z mexanizmlari faoliyatining ma'lum xususiyatlariga ega. Ijtimoiy idrok etishning quyidagi mexanizmlari mavjud:

- Stereotiplash, ya'ni bir ijtimoiy guruhnинг barcha vakillariga xos bo'lgan odamlar va hodisalarning doimiy qiyofasi yoki g'oyasini shakllantirish;
- Identifikatsiya:sheriklarning ichki holatini taqqoslash yoki taqqoslash mavjud bo'lgan muloqot sharoitida shaxs yoki guruhni intuitiv identifikatsiyalash va bilishda ifodalangan.
- Empatiya, bu boshqalarga nisbatan hissiy hamdardlik, boshqa odamlarga hissiy yordam berish va ularning tajribalariga ko'nikish orqali tushunish qobiliyatini anglatadi;
- Aks ettirish, ya'ni boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlar orqali o'z-o'zini bilish;  
Jozibadorlik - ijobiy doimiy tuyg'uga asoslangan boshqa odamlarni bilish;
- Sababiy bog'lanish - bu atrofdagi odamlarning his-tuyg'ulari va harakatlarini bashorat qilish jarayoni.

Shaxslararo idrokning o'ziga xosligi shundaki, u turli jismoniy xususiyatlarni ham, xulq-atvor xususiyatlarini ham hisobga oladi. Shu sababli, ijtimoiy in'ikos ikkala sherikning his-tuyg'ulari, motivlari, fikrlari, munosabatlari, noto'g'ri qarashlariga juda bog'liq. Ijtimoiy idrokda boshqa shaxsga subyektiv baho berish ham mavjud. Idrok voqelikning narsa va holatlarini aks ettirishning bir turidir. Bu erda idrok etuvchi shaxsning yoshi muhim rol o'yinaydi. Idrok predmetning yaxlit obrazini shakllantirishga yordam beradi. Psixologiyada bu hodisa insonning vaziyatni qanday ko'rishini va tashqi dunyo bilan muloqot qilishdan qanday xulosalar chiqarishini aniqlashga imkon beradi.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent 2009. 152-153-bet.  
Samarapedsovet.ru. Veb sayt. Akademik. 12.03.21-yil.

Источник: <https://samarapedsovet.ru/uz/geograficheskaya/percepciya---mehanizmy-i-zakonomernosti-socialnoi-percepции-psihologicheskie-mehanizmy-socialnoi-pe/>

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi VAzirlar Mahkamasining "O'qituvchilarni pedagogik-psixologik qo'llab quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi 12.07. 2019-yildagi 577-sonli qarori.
2. F.I. Xaydarov. N.I.Xalilova. "Umumiyl psixologiya" darslik. Toshkent 2009-y.
3. Odilboyevich J. H. SHAXS VA UNING TEMPERAMENTIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI MOSLASHISHDA UNING TARKIBIY QISMLARI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 78-84.
4. Xorijiy so'z va iboralar lug'ati. M. Olimp. 1997-y.
5. Samarapedsovet.ru. Veb sayt. Akademik.12.03.21-yil.